PEDAGOGIK KLASTER TIZIMIDA AKADEMIK MOBILLIK

Mirzarakhmonova Shakhnoza Mirzaahmadovna
p.f.f.d.(Phd) dotsent Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.14604285

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola mavzusiga murojaat qilish pedagog - kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish hamda bundan manfaatdor bo‘lgan tomonlarning sa’yi-harakatlarini integratsiyalashning tashkiliy shakli sifatidagi afzalliklarini yanada asoslash zarurati bilan izohlanadi. Har bir pedagog o‘z yo‘nalishini mukammal o‘zlashtirishi lozim ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR

ta’lim klasteri, modernizatsiya, kompetensiya, pedagogik – kasbiy kompetensiya, innovatsiya, nostandartlik, pedagog, akademik mobillik.

АННОТАЦИЯ

Тема данной статьи обусловлена необходимостью дальнейшего обоснования её преимуществ как организационной формы повышения эффективности системы подготовки педагогических кадров и объединения усилий заинтересованных сторон. Подчеркивается, что каждый учитель должен в совершенстве владеть своим делом.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

образовательный кластер, модернизация, компетентность, педагогико-профессиональная компетентность, инновация, нестандартность, учитель, академическая мобильность.

ABSTRACT

The topic of this article is explained by the need to further substantiate the advantages of the pedagogical training system as an organizational form of integrating the efforts of interested parties and increasing its effectiveness. It is shown that each teacher must master his field of study.

KEY WORDS

educational cluster, modernization, competence, pedagogical-professional competence, innovation, non-standard, teacher, academic mobility.

KIRISH. Maqolamizni yozishni boshlashdan oldin “Pedagog”, “Klaster so‘zlariga alohida etiborimizni qaratdik. Pedagog bu qadimda bola yetaklovchi

shaxs bo‘lgan ya’ni zodagonlarning farzandlarini olib yuradigan ishchilarga pedagog deb nom qo‘yilgan. Bugungi kunda Pedagog so‘zi eng qadrli kasb egalariga mansub bo‘lib ular bizning yurtimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodlarga ta’til tarbiya beruvchi muallimlarimiz sanaladi.

Klaster bu pedagogik strategiya bo‘lib unda o‘quvchilar o‘zlarining bilib darajalarini tekshirib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Klaster- o‘quvchilarga berilgan mavzu bo‘yicha erkin fikr yuritish imkonini beruvchi, ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z bilimlari, tushunchalari, yoki g‘oyalariga kirish imkonini beruvchi, shuningdek xotira va fazoviy fikrlashni rivojlantiradigan pedagogic strategiya. Ushbu strategiyada o‘quvchilar yakka tartibda, guruh bo‘lib yoki butun sinf jamoasi ishtirokida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq.

Respublikamizda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga mos ravishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchi shaxsining kompetensiyaviy imkoniyatlarini kasbga yo‘naltirish orqali yanada takomillashtirish, kompetentli kadrlarning innovatsion faoliyati asosida “bilim fanga: fan ishlab chiqarishga” tamoyilini amalga oshirishda integratsion yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurati kuchaymoqda. Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida “ta’lim mazmuni va sifatini oshirish, raqobatbardosh, yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega oliy ma’lumotli pedagoglar tayyorlashda samarador bo‘lgan pedagogik ta’lim innovatsion klasterlarini joriy qilish” mexanizmlari yanada takomillashtirilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI. Mamlakatimizda pedagogik ta’lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari, undagi uzluksizlik, uzviylik va izchillik va boshqa tamoyillari, uning innovatsion modeli hamda uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G‘.I.Muxamedov, Sh.Q.Mardonov, U.N.Xodjamqulov, Sh.I.Botirova, N.M.Koshanova, G.N.Sharipova va boshqalarning ishlarida muayyan darajada yoritilgan. Shuningdek, pedagoglar kasbiy xislatlarini rivojlantiruvchi omillar, xususan, o‘qituvchi kasbiy faoliyatining psixologik muammolari bo‘yicha tadqiqotlar A.I.Rasulov, A.M.Jabborov, D.G.Muxamedova, Yu.M.Asadov; bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash va tarbiyalash masalalari Sh.X.Abdullaeva, G.M.Maxmutova, N.S.Saidahmedov, A.G.Morozov, B.X.Raximov, N.D.Shodiev, O‘.Q.Tolipov, N.N.Azizxodjaeva, Yu.A.Axrorov, L.M.Mitina, R.H.Jo‘raev, B.R.Djuraeva, J.G‘.Yo‘ldoshev, A.N.Markova, U.N.Nishanaliev kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL . Mamlakatimizda pedagogik ta’lim klasteri doirasida shu vaqtgacha bo‘lgan ishlarda ta’lim klasterining nazariy va ilmiy asoslashga, uning sub’ektlarini belgilashga, ularning alohida va integratsion faoliyatini izohlashga, amaliy jarayonlar uchun

“laboratoriya”lar tashkil qilishga hamda loyihalarni joriy etishga katta ahamiyat berildi. Olib borilgan izlanishlarning asosiy ahamiyati ta’lim turlari va mazmuni integratsiyasi asosida tashkil qilingan ta’lim klasteri tuzilmasida ijtimoiy buyurtmani belgilash orqali uning pedagogik tizimini takomillashtirilganligi bo‘ldi. Tadqiqotlarda ta’kidlaganidek, ijtimoiy buyurtma ta’lim klasterini tashkil qilish va rivojlantirishning asosiy vektori hisoblanadi. Mintaqaviy ta’lim klasterlarida eng asosiy ijtimoyi buyurtma pedagogik-kasbiy kompetentlikka ega kadrlar tayyorlash sanaladi.

Mamlakat iqtisodiyotida mexnat bozorlari rivojlanib borayotgan bir vaqtda ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda zaruriy kompetensiyalarni tezkor egallashga hamda ularni zamon va vaqt makoniga mos ravishda takomillashtirib turishga qodir mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Ta’lim o‘zgaruvchan jarayon, u globallashuv darajasiga muvofiq takomillashtirilishi lozim, bu albatta, ta’lim jarayoni sub’ektlarining turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiyasi va mobilligi bilan amalga oshiriladi. Mamlakat taraqqiyoti har jihatdan ta’limga, ayniqsa ta’lim berish tizimininig doimiy tizimli ravishda isloh qilinishiga bog‘liq. Bu jarayonda insonning butun umri davomida ta’lim olishi tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Pedagogik ta’lim klasterining tadqiqini davomi sifatida biz endi ta’lim klasteridagi ishtirokchilarning tarkibi, ta’lim muassasalarining asosiy rolidan ko‘ra uning faoliyati natijasi bo‘lgan ijtimoiy buyurtma, ya’ni bo‘lajak pedagog-o‘qituvchini kompetensiyalarini rivojlantirish orqali mamlakat taraqqiyotini oshirishga katta e’tibor qaratish lozim.

Bo‘lajak mutaxassislar tayyorlash tizimining mintaqaviy klasterlarini tashkil qilish orqali biz mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlariga mos pedagog-kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xarakat qilamiz. Ta’lim klasteri tamoyillarining imkoniyatlari bu tizim faoliyatiga katta hissa qo‘shadi.

Ta’lim klasteri ta’lim muassasalarining ma’lum bir guruhga (pedagog-kadrlar tayyorlash) faqatgina mexanik integratsiyasini emas, ularning bir biriga bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirlarini ham ko‘rsatadi. Bu esa, ta’lim klasteri qismlarining (ob’ektlar, sub’ektlar, jarayonlar) sifatli ravishda alohida va bir butun holida o‘zgarishiga olib keladi, uning tizimli ishlashi natijasida innovatsion kompetentli pedagog - kadr tayyorlanadi.

Mintaqaviy ta’lim klasterida ta’lim jarayonidagi “bilimga oid paradigma”ni “kompetentlikka oid paradigma” bilan almashtirish talab etiladi. Bunda ta’limni kompetentli yondashuv holatiga yanada muvofiqlashtirish, ta’lim oluvchining “menga o‘rgatishyapti, o‘qituvchi biladi”, pozitsiyasini “men o‘rganyapman, o‘qituvchi menga yordam berishi mumkin” pozitsiyasiga o‘zgartirish maqsadga muvofiq. Bilimga oid paradigmada insonni ta’limda resurs sifatida ko‘rib chiqadi,

kompetentlikka oid paradigmada esa insonni ta’limning asosiy maqsadi sifatida ko‘rishi bilan ahamiyatlidir. “Bir kun asqotishi mumkin” deya g‘amlab qo‘yiladigan bilimlar bo‘lajak “pedagogik - kasbiy faoliyatni modellashtiruvchi” bilimlarni egallashga almashtiriladi. Talabaning qanday qilib bo‘lsada tez “ijtimoiylashuvga o‘rgatish” emas, “ijtimoiylashuvda individuallikni saqlash va rivojlantirishga o‘rgatish”ga e’tibor qaratiladi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun alohida strategiya zarur bo‘lib, u quyidagilarni nazardatutadi:

- mutaxassislarni tayyorlashda barcha fanlarning yaxlitligi, uzluksizligi va izchil aloqadorligi;
- kasbiy faoliyatni modellashtiruvchi, taqlid qiluvchi yoki aks ettiruvchi vazifalarni hal qilish o‘quv fanlari va o‘qitish vositalarini ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq aks ettirish mmkin;
- har bir fan, o‘quv materiali, shakl, usul va o‘qitish vositalarini mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish;
- amaliyotining barcha bosqichlarida talabalarni uzluksiz faol kasbiy faoliyatga singdirish.
- Bunda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:
- global darajada - shaxs o‘zi va jamiyat uchun zarur qobiliyatlarini rivojlantirishi; uni ijtimoiy-qadriyatli faollikka jalb qilish; mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlash ;
- OTM darajasida - kasbiy faoliyatning barcha turlarini nazariy va amaliy jihatdan amalga oshirishga tayyor bo‘lgan mutaxassis shaxsini tarbiyalashga qaratish;
- fan darajasida – kasbiy kompetentlikni loyihaviy, pedagogik-texnologik, tashkiliy - boshqaruv va ilmiy – tadqiqot kabi tarkibiy qismlarini shakllantirish[9].

Kompetentli o‘qituvchi ijodiy va ilmiy pedagogik faoliyatsiz yashay olmaydi, demak bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy kompetenlikni shakllantirish jamiyat uchun yuqori natijalarni kafolatlaydi.

Ta’lim klasterida pedagogik - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bir qator vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi:

1. Yo‘nalishga mos mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikalarni takomillashtirish. Ma’lumki, o‘quv fanlaridagi amaliy qism talabaning mustaqil faoliyatga yo‘naltirishdan ko‘ra dogmatik jarayonlar asosidagi nazorat va qabul qilishlardan iboratligicha qolib ketmoqda. Fanlarni bo‘lajak pedagogga qanday samarali metodikalar orqali olib borishi mumkinligi, “o‘qishni emas o‘rganishni o‘qitish”ga nisbatan xarakatlar amalga oshirilmaydi. Ba’zi o‘qituvchilarning

ishlarida quyidagi tamoyil ustuvor “o‘z fanimni bilsam, o‘qitish qo‘limdan keladi”, lekin o‘qitishning metodikasi bo‘yicha zaruriy bilimlar, pedagogik - kasbiy kompetensiyalar bo‘lishi shart emas deb hisoblaydi.

2. Talabalarning pedagogik amaliyotga tayyorlash. Pedagogik amaliyot shakllanishiga qaratilgan kasbiy malaka va ijodiy salohiyatni rivojlantirish ularning maktabdagi faoliyatga moslashish imkonini beradi. Amaliyot jarayonlarida bo‘lajak o‘qituvchi maqsadga muvofiq o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, nazariyani amaliyotda qo‘llash, tashkil qilinadigan reja va loyihalarni prognozlashtirish kabi ta’lim metodikalari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladi.

3. Bo‘lajak pedagog - o‘qituvchiga zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni shakllantirib borish. Oliy ma’lumotli mutaxassisning kompetentligi bilan kasbiy kompetentlik farq qiladi va bugungi kunda kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislarni tayyorlashga katta e’tibor qaratish lozim. Bo‘lajak pedagoglarda shakllanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar “kompetentlikka asoslangan ta’lim”da rivojlantiriladi.

XULOSA. Ta’lim klasterining modernizatsion qiyofasi unda turli ta’lim xizmatlarining mavjudligidadir, shu munosabat bilan biz pedagog - kadrlar tayyorlashga qaratilgan mintaqaviy ta’lim klasterida ta’lim xizmatlarini oshirishimiz, bu xizmatlardagi metodikalarni takomillashtirishimiz lozim. Takomillashtirilgan metodikalar bo‘lajak o‘qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatini tasvirlab beruvchi asosiy bloklardan tashqari, o‘zining shaxsiy va kasbiy nuqtai nazariga tanqidiy baho berish, har qanday faoliyatga, jarayonga asoslangan yondashuv hamda shaxsiy maqsadlarni ishlab chiqish, muvaffaqiyatning muhim omillari, samaradorlik ko‘rsatkichlari, ta’lim maqsadlar va takomillashtirish choralarini o‘z ichiga olgan to‘rtta jihat: moliya, iste’molchilar, ichki jarayonlar, bilim va o‘rgatish nuqtai nazaridan shakllantirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 213-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.04.2021 y., 09/21/213/0330-son.
2. Toshtemirova, S. (2020). Ta’limda Chirchiq tajribasi. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 445-451.
3. Muxamedov G.I. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija / Xalq so‘zi. 2019 y 15 fevral. https://xs.uz/uzkr/post/pedagogik-talim-innovatsion-klasteri-ehtiyozh-zarurat-natizha.

4. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari // pedagogika fanlari doktori diss.. – Chirchiq, 2020. - 270 b.
5. Botirova Sh.A. Adabiy ta’lim klasterining ilmiy pedagogik asoslari // pedagogika fanlari doktori diss.. – Chirchiq, 2021. - 265 b.
6. “The Relevance of the Dual Learning Model for Our Country”
7. KD Omonovich, MS Mirzaahmadovna Telematique 22 (01), 265–274-265–274
8. М.Ш.Мирзаахмадовна “Двойная профессиональная компетенция какдвойное содержание теоретические основы профессионального образования развитие системы” “Pedagogik ta’lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi.
9. M.SH. Mirzaakhmadovna “Dual ta'lım tızımıda pedagog va o‘quvchılarnıng kompetentsıyaları” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 6 (ISSN 2181-1717 (E)), 161-164
10. SH.M. Mirzarakhmonova “Dual professional competence as a dual conent of vocational education theoretical foundations of system development” Theoretical & Applied Science 108 (-ISSN: 2409-0085), 759-762
11. SH.M. Mirzarakhmonova “Advantages of a dual-based learning system in vocational education” Results of Modern Scientific Research and Development 1 (1), 222-225
12. Sharipova G.N. Pedagogik ta’lim klasteri sharoitida talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish // ped.fan.bo‘yicha.fals.doktori diss. – Chirchiq, 2020. - 180 b.
13. Toshtemirova. S.A. Ta’lim klasterlarini tashkil qilishda ijtimoiy buyurtmani belgilash zarurati // Ta’lim, fan va innovatsiya, 2021. № 4, 65-70 b.
14. Toshtemirova S.A. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar // Mug‘allim həm yzliksiz bilimlendirio‘, 2021. № 6, - B. 17-24.
15. Toshtemirova, S. A., & Izzatova, R. U. (2021). Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish / Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar, 836-840.